

IYJOB VA QABUL QACHON TUGAL BO'LADI?**To'ychiev Shahzod Shavkat o'g'li***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti**Tel: +99897 575 76 36*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muslmon kishi hayoti davomida har doim ehtiyoji tushib turadigan savdo masalasining asosi bo'lgan iyjob va qabul masalasi, uning shakl va turlari, hukmi hamda hanafiylardan boshqa mazhablarda Iyjob va qabul borasida aytilgan gaplarni ilmiy asosdagi mo'tabar manbalar asosida o'rghanildi.*

Kalit so'zlar: *Savdo, Iyjob, qabul, hukm, mazhab, elektron pochta, faks, qabul xati, Qabulni e'lon qilish nazariyasi.*

Har bir inson turmush taqozosi ila moliyaviy muomalalar ishtirokchisi bo'ladi Ayni shu muomalalar odamlarning ko'p vaqtini va faoliyatini o'z ichiga oladi. Moliyaviy muomalalar tartibga solinmasa, ularning qoidalari bo'lmasa, kishilar orasida kelishmovchiliklar ko'payadi. Allohol taolo bu ishni O'z zimmasiga olgan va umumiy ta'limotlarni Qur'oni karimda bayon qilib bergen. So'ngra Payg'ambarimiz alayhissalom orqali bu ishlarning tafsilotini yo'lga qo'ygan.

Shu tariqa, islomiy hukmlar musulmonlar hayotiga tatbiq qilingan. Islomdan oldingi davrdagi noto'g'ri hukmlar birin-ketin bekor bo'la boshlagan. Keyinchalik fuqaholarimiz ushbu mavzuda kelgan oyat va hadislardan chiqadigan hukmlarni tartibga solib, ijтиҳод darajasiga yetmagan musulmonlar uchun ularga yordam tariqasida osonlashtirib tushuntirib berishgan. Moliyaviy muomalalarda, asosan, halol va harom masalasi juda zarur hisoblanib, u yoki bu ish halol yoki harom ekani surishtiriladi.

Shuning uchun ham bu mavzuga oid oyati karimalarni o'rganganimizdan keyin bevosita «Halol kasb talabi haqida» va «Rostgo'ylik va karamli bo'lism haqida» alohida hadisi shariflarning sharhi bilan tanishamiz. Albatta, musulmon odam nima ko'rinsa sotavermaydi va sotib ham olavermaydi. Savdoga qo'yiladigan narsa shariatimiz shartlariga mos bo'lishi lozim.

Hozirgi kunimizda moliyaviy muomalalardan turli kelishmovchiliklar, urush-janjallar va mahkamabozliklar chiqayotgani hech kimga sir emas. Asosan savdo-sotiqdagi iyjob va qabul masalasini bilmaganlik sababidan ham o'rtada turli nizolar kelib chiqmoqda. Qo'yida shariatimizga muvofiq iyjob va qabul qanaqa bo'lishi bilan tanishib chiqamiz.

Savdo aqdi iyjob va qabul tugul bo'lishi bilan bog'lanadi. Bu borada hech kim ixtilof qilmagan. Ikki kishi bir joyga jamlanib, o'z og'izlari bilan iyjob qabul qilganda, qabul tugul bo'lib, savdo aqdi bog'langanini tasavvur qilish qiyin emas. Chunki iyjob qilingan majlisda ikkinchi tomon tili bilan qabul qilganini aytса, savdo aqdi bog'lanadi. Xuddi shu hukm telefon orqali qilingan savdo aqdida ham joriy bo'ladi.

Lekin elektron pochta, teleks, faks va shunga o'xhash vositalar orqali qilingan savdo aqdida bay' bog'lanishi uchun qabulning tugal bo'lgan vaqtini ta'yin qilish biroz qiyinroq. Chunki bu aqdning qabuli bir necha ehtimollarni o'z ichiga oladi. Masalan maktub yetib kelishi bilan ikkinchi tomon maktubni o'qib, «qabul qildim», degan so'zi bilan qabul to'liq bo'ladimi yoki bir varaqqa «qabul qildim», deb yozishi kerakmi yoki qabul to'liq bo'lishi

uchun maktubni qabul qilib olgan odam iyjob maktubini yozgan kishiga: «qabul qildim», deb yozib maktubni yuborishi kerakmi yoki yozilgan maktub iyjob qilgan kishiga yetib kelib, u maktubni o'qiganidan keyin qabul to'liq bo'ladimi?

Mana shu ehtimollar sababli odamlar tomonidan tuzilgan savdo-sotiq borasidagi qonunlarda to'rtta nazariya paydo bo'lgan:

Birinchi: Qabulni e'lon qilish nazariyasi. Bu nazariyadan murod shuki, maktubni qabul qilgan kishi iyjobni qabul qilganini e'lon qilishi bilanoq savdo aqdi bog'lanadi. Masalan Zayd Amrga moshinasini sotish haqidagi savdo iyjobini pochta orqali yuborsa, pochta orqali yuborilgan makutb Amrga yetib kelishi bilan u «Bu iyjobni qabul qildim», deb aytsa, garchi Amr Zaydga qabul qilganini bildiruvchi javob maktubini yubormasa ham o'sha zahoti savdo aqdi bog'lanadi.

Ikkinchchi: Qabul maktubini jo'natish nazariyasi. Bu nazariya bo'yicha, iyjob maktubini qabul qilgan tomon iyjob qilgan tomonga qabulini bildiruvchi maktubni yuborishi kerak. Ya'ni maktubni qaytara olomaydigan bo'lib yuborishi kerak. Demak bu nazariyaga ko'ra, qabul qiluvchining: «Iyjobni qabul qildim», deb og'zaki aytishi bilan savdo aqdi bog'lanmaydi. Bu aqd bog'lanshi uchun qabul qilganligini bildirib maktub yozishi va uni orqaga qaytara olmaydigan darajada pochta xizmatiga topshirgan bo'lishi kerak yoki bir elchiga qabul maktubini bergen bo'lishi va u elchi yo'lga chiqib, bu inson qabul maktubini qayta olomaydigan bo'lishi kerak.

Uchinchi: Qabul maktubini iyjob qiluvchi qabul qilib olishi nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra, qabul qilganini bildiruvchi xatni pochtaga yoki bir elchiga berishini o'zi savdo aqdini bog'langaniga kifoya qilmaydi. Savdo mukammal bog'lanishi uchun o'sha javob xatini iyjob qiluvchi tomon qo'liga olishi kerak. Lekin uning ichidagi mazmunni biladimi yoki bilmaydimi buning farqi yo'q, savdo aqdi xatni qabuli qilib olishi bilanoq bog'naveradi.

To'rtinchi: Xatni ichidagi mazmunni bilish nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra, iyjob qiluvchi tomon qabul qiluvchi tmondan kelgan maktubni qo'liga olishi bilan savdo aqdi bog'lanib ketmaydi. Aksincha, xatni qabul qilib olgach, uni o'qib, undagi mazmunni bilmshi kerak. Shundagina savdo aqdi bog'lanadi.

Bu yerda yana bir boshqa nazariya bor. Bu nazariya ikkinchi va to'rtinchi nazariyaning qorishmasi desak ham bo'ladi. Bu nazariyani ingilis qonuni o'ziga qabul qilgan. Bu nazariyaning mazmuni quyidagicha: qabul qiluvchi borasida maktubni qabul qilib olgach, rozilagini bildiruvchi javob maktubini yuborgandagina uning qabuli mukammal qabul bo'ladi. Iyjob qiluvchi borasida esa, unga makutb yetib kelgach, maktub ichidagi mazmunni bilishi bilan savdo aqdi mukammal bo'ladi. Shunga ko'ra Zayd iyjob maktubini Amrga yubordi. Amr bu iyjob muktubiga javob maktubini ya'ni qabul qilganligi to'g'risidagi maktubni pochta buyrosiga borib topshirdi. Endi Amr fikridan qayta olmaydi. Uning haqida savdo aqdi to'liq bo'ldi. Ammo Zaydga kelsak, u javob maktubidagi mazmunni bilmagunicha uning haqi borasida savdo aqdi mukammal bo'lmaydi. Shuning uchun hali javob maktubi uning qo'ligi yetib kelmagan va u uning mazmunini bilmagan ekan, u fikridan qaytib, iyjobini bekor qilishi mumkin.

Islom shariati fuqaholariga kelsak, ularning so'zidan shu ma'lum bo'ladiki, ular birinchi nazariyani ya'ni **Qabulni e'lon qilish nazariyasini tanlashgan**. Buni ularning quyida keladigan so'zlaridan bilib olish mumkin.

Imom Kosoniy rahmatullohi alayh aytadi: «Endi xat yozishga kelsak, u quyidagicha bo'ladi: «Bir kishi boshqa bir kishiga: «Ammo ba'd, Falonchi qulimni senga falon so'mga sotdim», deb xat yozadi. Yozgan maktub ikkinchi tomonga yetib kelganda, uni o'sha zahoti o'sha yerda «Sotib oldim», deydi va savdo aqdi bog'lanadi. Chunki uzoqda turgan kishining xitobi, kitobatdir (ya'ni xat yozishi xuddi yonida turib xitob qilganidek). U xuddi o'zi kelib, iyjobni qilgan va boshqa tomon o'sha yerda unnig iyjobini qabul qilgandek bo'ladi»¹⁷⁰.

Fatovoyi Hindiya kitobida shunday deyilgan: «Kitobat (ya'ni xat yozish orqali ifoda qilish) xitobat (ya'ni tili bilan xitob qilib ifodalash) kabitdir. Shuning uchun yozilgan maktub ikkinchi tomonga yetib kelganda, maktubni qabul qilgan majlisi yoki elchi yuboganda, elchi xabarni yetkizgan majlisi (shariatda xitob qilish) majlisi¹⁷¹ deb inobatga olingan»¹⁷².

Tojush sharia rahmatullohi alayh: «Maktub yozishning surati quyidagicha: (Iyjob qiluvchi) bir kishiga «.....», deb maktub yozadi. Bu maktub o'sha kishiga yetib kelib, uni o'qib, ichidagi mazmunni bilgach, o'sha majlisda uni qabul qiladi. Shu bilan savdo aqdi bog'lanadi», degan¹⁷³.

Fuqaholarning yuqorida aytgan gaplaridan shu ma'lum bo'ladiki, hanafiy olimlari: «Maktubni qabul qilib olgan tomon o'sha majlisda bu iyjobni qabul qilganini e'lon qilishi savdo aqdini bog'lanishiga kifoya qiladi», deyishgan va savdo aqdi bog'lanishi uchun bu e'lonni iyjob maktubini yozgan tomon bilishini shart qilishmagan.

Shofeiy va hanbaliy olimlarning ba'zilari ham aynan shu fikrda ekanligini ularning aytgan so'zlaridan bilib olish mumkin. Jumladan Imom Navaviy rahmatullohi alayh shunday degan: «Imom G'azzoliy Fatovo kitobida: «Agar yozishma orqali qilingan savdo aqdini sahih deydigan bo'lsak, sotuvchi birovga xat yozsa, sotib oluvchi xatni qabul qilib olsa, modomiki sotib oluvchi o'sha majlisida ekan, uning xiyorul majlis huquqi bor. Sotuvchining iyjob qilgandan keyingi xiyori, sotib oluvchining xiyori uzulgunga qadar davom etadi. Shuning uchun agar maktubni qabul qilib olgan sotib oluvchi hali majlisini o'zgartirmasidan oldin sotuvchi fikridan qaytganligi ma'lum bo'lsa, sotuvchi o'z iyjobini shar'an bekor qilgan hisoblanadi va savdo aqdi bog'lanmaydi», degan¹⁷⁴».

Bahutiy rahmatullohi alayh ham: «Agar sotib oluvchi sotuvchi majlisidan uzoqda bo'lsa, sotuvchi unga maktub yozib yoki elchi yuborib: «Hovlimni senga falon so'mga sotdim» yoki «Falonchiini sotdim», deb uni alohida ajratib turuvchi sifatlari bilan vasflasa, bu iyjob xabari sotib oluvchiga yetib kelsa va u bu iyjobni qabul qilsa, savdo aqdi bog'lanadi», degan¹⁷⁵.

Fuqaholarning bu so'zlarini savdo aqdi bog'lanishi uchun xatni qabul qilgan tamon iyjobni qabul qilishining o'zi kifoya qilishiga dalolat qilyapti. Ularning so'zida iyjob qilgan tomon uning qabul qilganini bilishi shart degan joyi yo'q. Lekin shofeiy va hanbaliylar xiyorul majlis degan masalani aytishgan. Bu masalaga ko'ra qabul majlisi tugamasidan oldin aqdashuvchilardan biri savdoni bekor qilishi mumkin. Lekin bu ham yuqorida aytilgan gapga

¹⁷⁰ Badoius sanoi'. 5 juz, 138 bet.

¹⁷¹ Ya'ni mana shu majlisda unga yetib kelgan taklifga munosabatini bildirishi kerak. Agar shu majlisda bildirmasa, unda unga qilingan taklif bekor bo'lib ketadi va u o'sha majlisda javob bermagani uchun taklifni qabul qilish huquqidan mahrum bo'ladi.

¹⁷² Fatovoyi hindiya. 3 juz, 9 bet.

¹⁷³ Oldingi manba.

¹⁷⁴ Majmu' sharhul muhazzab. 9 juz, 168 bet.

¹⁷⁵ Kashful qano' an matni iqno'. 3 juz, 137 bet.

ya’ni maktubni qabul qilgan tamon iyjobni qabul qilishining o’zi savdo aqdini bog’lanishiga kifoya qilishi, iyjob qilgan tomon bu qabulni bilishi shart emasligiga ta’sirini o’tkazmaydi. Hali xiyorul majlis haqida gaplashamiz.

Molikiy mazhabi esa, yuqorida aytganimizdek iyjob qilgach, ikkinchi tomon to qabul qilganini yoki rad qilganini bildirmaguncha, iyjob qiluvchi tomon iyjobini bekor qilolmaydi. Ularning bu gapidan shu ma’lum bo’ladiki, ikkinchi tomon iyjobni qabul qilishi bilan xoh bu qabulni iyjob qilgan tomon bilsin, xoh bilmashin, savdo aqdi bog’lanadi. Molikiylarning gaplaridan shu ma’lum bo’ladiki, ular **Qabulni e’lon qilish nazariyasini** tanlashgan.

Savdo aqdi bog’lanishi borasida shuncha fiqhiy nazariyalar bo’lishiga qaramay, zamondosh faqihlar «Shariatimiz fuqaholari shunday deyishgan: «Maktub yetib kelgan tomon iyjobni qabul qilishining o’zi savdo aqdini bog’lanishiga kifoya qilmaydi, savdo bog’lanishi uchun ikkinchi tomon qabul qilganini iyjob qilgan tomon bilishi lozim», deb da’vo qilishmoqda va bu da’volarini oqlash uchun «Fatovoyi hindiya» kitobida kelgan quyidagi masalaga suyanishmoqda:

«Savdo aqdini sahih bo’lish shartlaridan biri shuki, iyjob qabulni ikkala tomon ham ya’ni sotuvchi va sotib oluvchi ham eshitishi kerak. Bu savdo aqdi bog’lanishining asosiy sharti bo’lib, bunga hamma ijmo’ qilgan. Shunga ko’ra, agar sotib oluvchi: «Sotib oldim», desa va uning bu gapini sotuvchi eshitmasa, savdo aqdi bog’lanmaydi»¹⁷⁶.

Xuddi shunga o’xshash masala «Sharhul majalla» kitobida aytib o’tilgan. Unda «Sotuvchi fikridan qaytib iyjobni bekor qilganini ikkinchi tomon eshitishi kerak, agar eshitmasa iyjobni bekor qilgani inobatga olinmaydi», deyilgan¹⁷⁷.

Doktor Abdurrazzoq Sanhuriy rahmatullohi alayh mana shu asosga ko’ra shunday degan: «Bir joyda jamlanib aqdlashayotgan ikki kishining aqdi bog’lanishi uchun iyjob qilgan tomon ikkinchi tomonning qabulini eshitishi vojib degan qoidaning mantiqi shuni bildiradiki, ikki kishi bir joyda jamlanib savdolashgandagi eshitish vojib degan shart, bir-biridan uzoqda bo’lib savdo aqdini bog’lashdagi iyjob qiluvchi tomon ikkinchi tomonning qabulini bilishi shart, degan gapga to’g’ri keladi»¹⁷⁸.

Voqeylikka qaraydigan bo’lsak, Qur’oni karim ham, sunnati sharif ham ikkinchi tomoning qabul vaqtি qachon mukummal bo’lishini bayon qilmagan. Qur’onda aytilgan asosiy shart bu ikki tomoning roziligi. Niso surasining 29 oyatida shunday deyiladi:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا لَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَكُمْ بِيَنْكُمْ بِالْبَاطِلِ إِلَّا أَنْ تَكُونَ تِجَارَةً عَنْ تَرَاضٍ مِّنْكُمْ [النساء : 29]

«Ey imyon keltirganlar! Bir-birlaringizning mollariningizni botil yo’l bilan yemang. Magar o’zaro rozilik ila tijorat bo’lsa, mayli».

Fuqaholarning iyjob va qabul borasida aytgan barcha gaplari mana shu asosdan ya’ni rozilik asosidan kelib chiqgan. Savdo aqdining to’liq bo’lish vaqtি bu ikki tomoning xohishiga muvofiq rozilik hosil bo’lishidir. Lekin bu rozilik hosil bo’lishidan oldin iyjobni botil qiluvchi yo’qqa chiqaruvchi yoki iyjobni rad qiluvchi hatti harakat sodir bo’lmasisligi kerak. Rozilik ro’ybga chiqishi uchun qoim bo’lib turgan iyjobni ikkinchi tomon qabul qilganini aytishi kerak.

¹⁷⁶ Fatovoyi hindiya, 3 juz, 3 bet.

¹⁷⁷ Atosiy rahmatullohi alayh. Sharhul majalla, 184 modda.

¹⁷⁸ Doktor Abdurrazzoq Sanhuriy. Masodirul haq. 2 juz. 56 bet.

Demak, birinchi tomon savdo aqdini insho qilmoqchiligin e'lon qilgach, ikkinchi tomondan o'sha iyjobni qabul qilganini e'lon qilsa, ikki iroda bir-biriga muvofiq kelgan bo'ladi va rozichilik hosil bo'lib, savdo aqli tugal bo'ladi.

Fuqaholarning bu aytgan gaplari Qur'onda aytildiyan rozichilik va ikki tomoning xohishi bir-biriga muvofiq kelishi kerak degan mantiqning ko'zlagan asl maqsadidir. Shuning uchun fuqaholar: «Savdo to'liq bog'lanishi uchun iyjob haqidagi xabar ya'ni yetib kelgan majlisda ikkinchi tomon iyjobni qabul qilishi kerak», deyishgan.

Lekin menga zohir bo'lgan narsa shuki, fuqaholarning bu aytgan gaplari diyonatan¹⁷⁹ to'g'ri, lekin qazoan olganda savdo aqli bog'lanmaydi. Shunga ko'ra, iyjob xati yetib kelgach, sotib oluvchi: «Qabul qildim», deb tili bilan aytса yoki «Savdo aqdini bog'lash niyatida qabul qilganini bildiruvchi maktub yozsa, o'sha vaqtidan boshlab diyonatan uning haqida bu savdo lozim bo'lib qoladi. Lekin iyjob qiluvchining haqqi borasida qazoan olganda u to javob xatini qabul qilib olmagunicha savdo aqli bog'lanmagan bo'ladi. Chunki iyjob maktubiga bildirilgan javob vaqtini «Falon vaqtda iyjobni qabul qildi», deb, aniqlash juda juda qiyin. Bu iyjob xatiga bildirilgan javob xoh tili bilan bo'lsin, xoh risola yozish orqali bo'lsin oson ish emas. Chunki tili bilan aytib iyjobni qabul qilgan odam qabul qilganini iyjob qilgan tomonga bildirishni kechiktirishi mumkin yoki qabul maktubi haqidagi javob xati yo'lda ushlanib qolishi yoki yo'qolib qolishi mumkin. Bundan xabari yo'q iyjob qiluvchi: «U iyjobimni qabul qilmadi», deb o'ylab boshqa kishi bilan savdo aqdini bog'lashi mumkin. Mana shunday mashaqqat va qiyinchiliklarni ketkazish uchun «Maktub yozib iyjob qilgan odam ikkinchi tomoning qabulini bilishi lozim», degan shartni vojib qilib qo'yish kerak. Chunki iyjob qiluvchi sotib oluvchining uzoqda turib «qabul qildim», degan so'zini ya'ni o'zi xabar topmagan qabulni savdo aqdini bog'lanishiga sabab bo'lyapti, degan so'zga ko'nmaydi. Natijada oyatda aytildiyan o'zaro rozilik sharti yo'qoladi. Fuqaholardan: «Savdo aqli bog'lanishi uchun iyjob qilgan tomon ikkinchi tomoning qabulni bilish kerak», deganlarning so'zları mana shu (biz aytgan sabab)ga haml qilinadi.

Mana shu yo'l bilan hanafiy fuqaholarning «Xat yozish orqali savdo aqli qilayotganda ikkinchi tomon iyjob xatini o'qigach, iyjobni qabul qilganini e'lon qilishi bilan savdo aqli lozim bo'ladi», degan so'zilarini «Bu iyjob qiluvchining haqqi borasida emas, qabul qiluvchining haqqi borasida savdo lozim bo'ladi», deb va bir joyda jamlanib savdolashayotgan ikki kishining orasidagi savdo aqdida esa «Iyjob qiluvchi to qabul qiluvchining «Qabul qildim», degan so'zini eshitmaguncha savdo aqli lozim bo'lmaydi», degan so'zlarini «Bu iyjob qiluvchining haqqi borasida savdo aqli lozim bo'lmay turadi», deb talqin qilish mumkin.

Iyjob qiluvchining (qabul qiluvchining qabul qilganini) bilishi ravshan narsa emas, maxfiy narsadir. Qozi tomonidan hukm chiqarilayotganda qozi odatda uning bu narsadan xabardor bo'lishiga sabab bo'ladigan holatlarni aniqlab keyin hukm chiqaradi. Shuning uchun fuqaholar: «(Bir joyda jamlanib ikki kishi savdo aqdini bog'layotganda) majlisda turgan odamlar qabul qiluvchining «Qabul qildim», degan so'zini eshitishsa, (va guvohlik berishsa)

¹⁷⁹ Ya'ni birovga iyjob maktubi yoki elchisi yetib kelganda, u o'sha majlisda: «Bu iyjobni qabul qildim», desa, lekin uning bu qabuli hali iyjob qilgan kishiga yetib bormagan bo'lsa, keyinchalik sotib oluvchi: «Мен бу iyjobni qabul qilmadim», deb turib olsa diyonat jihatidan ya'ni ertaga Alloh oldida turib javob berish jihatidan yolg'on gapi rayotgan bo'ladi. Lekin qazoan ya'ni qozining oldiga borib, shu masalaga yechim izlanayotganda, qozi «Bu qabul haqida iyjob qiluvchining hali xabari yo'q ekan», deb savdo aqdini bog'lanmagan, deb hukm chiqaradi.

iyjob qiluvchining: «Men eshitmadim, qulog‘imga yetib kelmadi», degan so‘zi inobatga olinmaydi», degan¹⁸⁰.

Xuddi shuningdek, xat yozish orqali qilingan savdoda ham qaraladi. Agar iyjob qiluvchi javob xatini qabul qilib olgan bo‘lsa va uni ochib o‘qiydigan darajadagi vaqt o‘tgan bo‘lsa, demak bu qabul qiluvchining javobidan xabardor, deyiladi.

Bu mavzuning xulosasi shuki, qabul qiluvchining haqqida «Buni qabul qildim», deb e’lon qilishi bilan savdo aqdi lozim bo‘lib qolsa, iyjob qiluvchining haqqida esa o‘sha javob xatini qo‘liga olib xabardor bo‘lishi bilan lozim bo‘lib qoladi. Fuqaholarning bu boradagi gaplarini o‘qib ko‘rganimdan keyin mening fikrim qaror qilgan narsa shu bo‘ldi. Lekin bu masala ijтиҳодиъ bo‘lib, savdo sahih bo‘lishi uchun Qur’onda shart qilingan «ikki tomoning roziligi bilan» degan gapning tafsiriga borib taqaladi. Biz zikr qilgan to‘rt nazariya aynan mana shu «rozichilik» shartini ehtimol qiladi. Shuning uchun ulardan qaysisi o‘zi yashab turgan urfga to‘g‘ri kelsa, o‘sha nazariyani olib tatbiq qilishi bu Qur’on va sunnatda kelgan mazmunga qarshi chiqmaydi. Alloh taoloning O‘zi biluvchiroq!

¹⁸⁰ Fatovoyi hindiya. 3 juz, 3 bet.